

XIVADAGI AMERIKALIK JURNALIST

MUNIRA G'AYRATOVNA OTAMURODOVA

2- bosqich magistratura talabasi O'zbekiston Milliy Universitet

Annontatsiya: Ushbu maqola Amerikalik jurnalist Yanuariy Aloiziy MakGahanning Rus qo'shinlarining Markaziy Osiyoga bosqinchilik harakatiga qiziqishi va shu sababli, Xivaga sayohat qilishi, sayohati davomida uning Xiva haqidagi "Oksga yurish va Xivaning qulashi" nomli asari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: *O'zbek xonliklari, Yanuariy Mak Gahan, harbiy maqsadlar, Gandimiyon qishlog'i, amerikalik jurnalist.*

Kirish qismi: XIX asr o'rtalariga kelib jahonning yirik davlatlari o'rtasidagi yangi mustamlakalar uchun kurash qizib ketdi. O'zbek xonliklari dunyodagi yirik davlatlar, jumladan Angliya va Rossiyani xomashyosi, yer osti boyliklari, arzon ishchi kuchi, qulay geografik o'rni va tashqi bozor ekanligi bilan o'ziga tortar edi. Mazkur omillar tufayli Angliya va Rossiyaning mustamlakachilik manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Dunyo siyosatida ikki katta davlatlar o'rtasida sodir bo'layotgan kurash amerikalik tadqiqotchilar, siyosatchilar, olimlarni shu barobarida jurnalist MacGahanning ham qiziqishiga sabab bo'lgan. Yanuariy Mak Gahan 1844-yil 12-iyunda Ohio shtati New Lexington shahrida irlandiyaliklar oilasida dunyoga kelgan. U 7 yoshida otasidan ayrilgan. Oilasiga yordam berish uchun fermalarda ishlay boshlagan. 17 yoshida Indiana shtatiga ko'chib kelib sotuvchi va o'qituvchi bo'lib ishlagan. Keyinchalik advokat bo'lishga harakat qilgan lekin huquqshunoslik fakultetiga kira olamagan. Shundan so'ng nemis va fransuz tilini puxta egallab, o'zining chet tillarini o'rganish qobiliyatini kashf etgan. MakGahan gazetalarga ko'plan maqolalar yozib jurnalistik faoliyatini boshlab yuboradi. Xiva xonligi va uning ruslar tomonidan bosib olinishi jarayoni G'arb jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Amerikalik jurnalist va tadqiqotchi MakGahan Rossiya istilosi davrida to'g'ridan-to'g'ri Xiva xonligiga borib, Xivaning bosib olinishi va o'rtasida shartnoma imzolanishini yoritgan.

Asosiy qism: Rus qo‘shinlarining Xiva xonligiga bostirib kirishi rejalashtirilganidan xabar topgan MakGahan voqealarni yoritish uchun, taqiqqa zid ravishda Qizilqumni otda kesib o‘tadi va 1873-yilda Xiva shahrining taslim bo‘lganiga guvoh bo‘lgan. MacGahan Xivada bo‘lgan kezlarda harbiy maqsadlardan ko‘ra sayohat va sarguzashtlarga ko‘proq e‘tibor beradi. “Men Xivaga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarnigina emas, balki o‘lkaning xususiyatlari, ijtimoiy hayoti va siyosiy ahvolini ham tasvirlab hikoyamga to‘liqlik kiritish uchun qo‘limdab kelgancha harakat qildim” - deydi u. Amerikalik jurnalist Artur Yanuarius MakGahan bo‘lib, u Xiva xonligiga bo‘lgan rus harbiy ekspeditsiyasida qatnashish uchun rus qo‘shinida bo‘lgan va o‘zining Xivadagi boshidan kechirganlarini batafsil kundaligini chop etgan. Uning asari ingliz tilida ko‘p marta nashr etilgan. 1876 yilda asar to‘rtinchi marta Londonda ko‘plab rasmlar va xaritalar bilan nashr etildi. Kundalik 3 qismdan iborat. Har bir bo‘lim boblardan iborat. Asarning mazmuni quyidagicha:

- 1-qism.Qizilqum hayoti (21 bob);
- 2-qism.Xivaning qulashi. (20 bob);
- 3-bo‘lim. Turkmanlarning yurishi.

Qizilqumdagi sarguzashtlar, Rossiyaning Xiva xonligiga hujumi, undan tashqari aholining madaniyatini, urf odatlariga ham sinchkovlik bilan e‘tibor berib, asarida bayon qilgan N.A.Veryovkin Xivani egallagan paytni MacGahan Xivaga kelgan uning birinchi vazifalaridan biri bu Xiva shahrini ko‘rishdan iborat bo‘lgan. Bu shaharning ulug‘vorligi, go‘zalligi va me‘morchiligi uni hayratda qoldirdi. Xivani bosib olishda qatnashgan rus qo‘shinlari bosh qo‘mondoni general fon Kaufmanning qarorgohi Xiva xoni Muhammad Rahimxonning ukasi Otajon To‘raga tegishli bo‘lgan Gandimiyon qishlog‘idagi dalada joylashgan edi. MakGahan ham bu yerda 3 oy yashaydi. U rus armiyasi polkovnigi M.D.Skobelev bilan do‘stlashib, undan voha hayotiga oid hujjatlarni o‘rgangan. MakGahan o‘zining asarida fon Kaufmanning Xiva xoni Muhammad Rahimxonga yozgan maktubining asl nusxasi keltirilgan unda shunday shartlar yozilgan, K.P.Kaufman ma‘lum shartlar evaziga o‘ldirmasligi, Sibirga surgun qilmasligi haqida bayon etilgan. Asarning 2-bo‘lim 13-bobi Xiva xoni va Kaufmanning ilk uchrashuvi qanday bo‘lganligi haqida tarif berilgan. “14 iyun kuni xon o‘z

tarafdorlari bilan Xivaga qaytib keldi va uni bosqinchi huzuriga olib kelishdi. Kaufman uni chodir oldidagi qarag‘ay ostida qabul qildi. Gilamlar, stol va stullar bilan jihozlangan baland g‘ishtli supa bor edi. Kaufman bilan xon o‘rtasidagi ilk suhbat shu minbarda bo‘lgan’. MakGahan o‘zining xotiralarida xonning saroyi, Markaziy Osiyo bozorlari haqida ham ma‘lumot yozgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, xon saroyining qo‘shni ikkita xonasida turli xil qurol-yarog‘lar va harbiy zirhlar, jumladan, “nilufar guli tasviri tushirilgan ritsarlar qalqoni”, bezakli qadimiy sharq qurollari, Xuroson qilichlari, Eron qilichlar va tosh bilan o‘ralgan qimmatbaho afg‘on xanjarlari. Ikkinchi xonada asosan kitoblar, shuningdek, kamon va o‘qlar va ko‘plab qadimiy idishlar mavjud edi. Birgina XVII-XIX asrlarda mingdan ortiq xitoy chinni buyumlari mavjud bo‘lib, bu nodir buyumlar rus zobitlari uchun o‘ljaga aylangan”, — dedi u. Markaziy Osiyo bozorlari, bozordagi savdo, ayyollar erkaklarning kiyinish uslubi yozuvchini taajublantirgani ,ya’niki ayollar ko‘chaga yirtiq yamoq ko‘rimsiz “Mahalliy ayollar ko‘chaga chiqqanlarida o‘tkinchilarning e‘tiborini tortmaslik uchun eng iflos va yirtiq kiyimlarda kiyinadilar. Bu odat Xivaning eng yoqimsiz xususiyatlaridan biridir. Butun haftalar va oylar davomida siz hamma joyda va hamma joyda faqat erkaklar yuzlarini uchratasiz, shunda nihoyat, ayolning yuzini ko‘rish istagi cho‘l bo‘ylab uzoq sayohatdan keyin yashil o‘tlar va gullarga qarash kabi favqulodda ehtiyojga aylanadi” Bu jumla aynan yozuvchining so‘zlardan olingan. 1873-yildagi Xivaning ahvoli, Markaziy Osiyo ko‘p millatli xalqi va juda ko‘p ma‘lumotlar o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealarni haqqoniy bayon etgan.

Xulosa qilib aytganda Mak GAhan orqali Xiva xonligining bosib olinishi haqidagi chet elliklarning ilk tadqiqotlarini o‘rganamiz, U Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan ilk Amerikalik journalist edi. Uning asari orgali Xiva xonligining mag‘lub etilishi, undagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot, Xon va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi shartnomalar haqida ma‘lumot olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванян Э. А. Макгэхен Джануариус Алойзиус. —Энциклопедия российско-американских отношений. XVIII-XX века. —М.: Международные отношения, 2001. —С.696

2. Mac Gahan, J.A. Campaigning on the Oxus, and the fall of Khiva. With map and numerous illustrations. Fourth and cheaper edition. —London: Sampson Low, 1876. P. 274

3. Munira G‘Ayratovna Otamurodova G‘ARB MAMLAKATLARIDA MARKAZIY OSIYO TARIXINING O‘RGANILISHI // Scientific progress. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/g-arb-mamlakatlarida-markaziy-osiyo-tarixining-o-rganilishi> (дата обращения: 28.02.2024).